

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHGA ERISHISHDA SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH

*G‘aniyev Asrorbek Barhayot o‘g‘li*²⁶⁶

Zakirova Sayyora Alimovna ²⁶⁷

Annotatsiya. Hozirgi kunda iqtisodiyot sohalarining rivoj topishi, aholi sonining ortishi natijasida ularning ehtiyojlarini qondirish uchun qishloq xo‘jaligida suv resurlariga bo‘lgan talab tobora oshib bormoqda. Afsuski, suvdan samarasiz va oddiy usullar yordamida foydalanish suv taqchilligini yuzaga keltirmoqda va isrofgarchilik miqdori ko‘p kuzatilyapti. Ushbu maqolada ekin maydonlarini sug‘orishda innovatsion suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish orqali suv tejamkorligiga erishish borasida fikr boradi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi, suv resurslari, fermer xo‘jaliklari

Abstract. Nowadays, due to the development of economic sectors and the growth of the population, the demand for water resources in agriculture is steadily increasing in order to meet their needs. Unfortunately, inefficient and traditional methods of water usage are leading to water scarcity and a high level of waste. This article discusses achieving water efficiency in irrigating crop fields through the use of innovative water-saving technologies.

Keywords: green economy, innovative technologies, agriculture, water resources, farming enterprises.

Аннотация: В настоящее время, в связи с развитием экономических отраслей и ростом численности населения, спрос на водные ресурсы в сельском хозяйстве постоянно растёт для удовлетворения потребностей. К сожалению, неэффективное и традиционное использование воды приводит к её дефициту и значительным потерям. В данной статье рассматриваются вопросы достижения водосбережения при орошении посевных площадей за счёт применения инновационных водосберегающих технологий.

Ключевые слова: зелёная экономика, инновационные технологии, сельское хозяйство, водные ресурсы, фермерские хозяйства

Kirish. So‘ngi yillardagi iqlim o‘zgarishlari, mamlakatimizdag‘i aholi sonining ortishi, shuningdek, iqtisodiyotimizning turli sohalardagi rivojlanishlari va ularning suvga bo‘lgan ehtiyojlari ortishi sabab suv resurslaridan foydalanishni nazoratga olish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu maqsadga erishishda shubhasiz yashil iqtisodiyotning, ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish eng ustuvor masala hisoblanadi. Suv resurslarini boshqarishda innovatsion yondashuvlardan

²⁶⁶ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti, e-mail: asrorbekganiyev777@gmail.com

²⁶⁷ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasи dotsenti, e-mail: sayyora.6262@mail.ru

foydalanish bugungi kunda nafaqat mintaqaviy, balki global tendensiyalar qatoriga kirmoqda va bu borada dunyoning turli mamlakatlari qator islohotlar olib boryapti. Mamlakatimizda ham iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha, shuningdek, O‘zbekistondagi 4,3 mln hektar ekin maydonlarini sug‘orish uchun suv resurslarining 90 foizi sarflanayotganini hisobga olgan holda, hududlardagi barcha fermer xo‘jaliklariga sug‘orishning suvni tejaydigan texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha seminar-treninglar o‘tib kelinmoqda.

Asosiy qism. Qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida suvdan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarining suvga bo‘lgan munosabatlarini yanada takomillashtirish, sug‘orishda suv resurslarini tejaydigan texnologiyalardan keng ko‘lamli foydalanish va ularni rag‘batlantirish borasida ishlanmalar olib borilmoqda. Bugungi kunga kelib dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan, Braziliya (77% maydonga qo‘llagan), Ispaniya (73%), Italiya (60%), Janubiy Koreya (60%), AQSH (56%), Saudiya Arabiston (56%), Fransiya (41%), Xitoy (41%) suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlarda bormoqda. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 17 foizni tashkil qilmoqda.²⁶⁸

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (PQ-144-son) qaroriga muvofiq fermerlarga suv tejovchi texnologiya joriy etgan har bir hektar yeri uchun subsidiyalar berish belgilab qo‘yilgan. Bunda paxta maydonlari uchun 8 mln so‘m — Qoraqalpog‘iston va Xorazmda 12 mln so‘m, sabzavot va poliz ekinlari uchun 1,5 mln so‘mdan 2,5 mln so‘mgacha, mevali ekinlar uchun 6 mln so‘m, uzum maydonlari uchun esa 8 mln so‘mdan ajratilishi ko‘zda tutilgan. Bu kabi suv tejovchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali minimum 40 % miqdorda suvni tejash mumkin bo‘ladi. Agarda ushbu texnologiyalardan samarali foydalanilsa, u holda 50 % gacha bo‘lgan suvni tejash imkon mavjud.²⁶⁹

Innovatsion suv tejamkor texnologiyalar va ularning qisqacha izohi bilan quyidagi 1-jadvalda tanishish mumkin.

Innovatsion suv tejovchi texnologiyalar 1-jadval²⁷⁰

#	Texnologiya nomi	Qisqa izoh
1	Tomchilatib sug‘orish	Suvni bevosita ildiz zonasiga yetkazib, bug‘lanish va oqim yo‘qotishlarini keskin kamaytiradi; suv resurslaridan eng samarali foydalanishga yordam beradi.

²⁶⁸ Shoxo‘jayeva Z. (2023). Qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi innovatsion texnologiyalardan fodalanishning asosiy yo‘nalishlari. SamTSAU Conference, 51-59.

²⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi (2022). <https://www.agro.uz/11-04451/>

²⁷⁰ MORCAPUMPS (2024). 10 Agricultural Techniques for Water Conservation.

<https://morcumps.com/blog/agricultural-techniques-for-water-conservation/?srsltid=AfmBOopERVbPuuiNRe4vhGmhWnUK-oqaSq2Tele19O5P0jiO1DZaiNJR>

2	Yomg‘irlatib sug‘orish	Boshoqli don ekinlarini parvarishlashda suvni iloji boricha tabiiy yomg‘ir tarzida yetkazib beradigan usuldir.
3	Namlikni saqlash	Mulchalash va no-till texnikalari orqali tuproq yuzasidan namlikning bug‘lanishini sezilarli darajada kamaytiradi.
4	Yaxshilangan ekin tanlovi	Hudud iqlimiga mos, tabiatan qurg‘oqqa chidamli navlarni tanlash suv iste’molini keskin kamaytiradi.
5	Nazoratli suv bosib sug‘orish	Ma’lum vaqtarda mo‘tadil suv bosish yer osti suv qatlamini to‘ldirishga yordam beradi.
6	Polimerlar qo‘llash	Tuproqqa superabsorbent polimerlar solish namlikni ushlab turib, ayniqsa suv tanqis hududlarda foyda keltiradi.
7	Rejalashtirilgan sug‘orish	Eng samarali vaqtda—ertalab yoki kechki paytda sug‘orish bug‘lanish yo‘qotishlarini kamaytiradi.
8	Suvni qayta ishslash	Qishloq xo‘jaligi jarayonlarida ishlatilgan suvni tozalab, qayta ishlatish amaliy va tejamkor yondashuvdir.
9	Teraslash	Nishab yerlarda teraslar yaratish tuproq eroziyasini va oqib ketishni kamaytirib, yomg‘ir suvining tuproqqa singishini oshiradi.
10	Agroforestriya	Daraxt va butalarni ekin maydonlariga qo‘sish tuproqning suv saqlash xususiyatini yaxshilaydi.

Yuqoridagi jadvalda nomi keltirilgan texnologiyalar nafaqat suvni tejab qolishga, balki ekinlarning hosildorligini oshirishga va ularning yaxshi rivojlanishiga xissa qo‘sadi.

Hisob kitoblarga ko‘ra qatorlar orasini polietelin quvurlar orqali tomchilatib sug‘orilganda 25-30% suv tejaladi, paxtaning hosildorligi esa gektariga 5-6 sentner ortib birinchi terim salmog‘i 8-10% ga oshgani holda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatgichi gektariga o‘rtacha 220-240 ming so‘mni tashkil qilishi asoslangan.

Yomg‘irlatib sug‘orishda paxta hosildorligi 3-4 sr/ga, bug‘doy hosildorligi esa 10 sr/ga oshishi aniqlangan, shuningdek, kuzgi bug‘doyni yomg‘irlatib sug‘organda niholar soni egatlab sug‘orilganga qaraganda 50% ga ortiqroq bo‘lishi kuzatilgan.

Xulosa. O‘zbekiston, mutaxxasislar fikriga ko‘ra, 2040-yillarga borib suv tanqisligiga uchrashi kutilayotgan 33 davlatdan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizning okeanga chiqish imkoniyati cheklanganini hisobga olgan holda, innovatsion suv tejamkor texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish zarur. Ushbu innovatsion yondashuvlar natijasida suv sarfini sezilarli darajada pasaytirishga va suv isrofgarchiligining oldini olishga erishiladi va bu orqali tejalgan suv hisobiga takroriy ekinlarni sug‘orish mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida iqtisodiyotimizning qishloq xo‘jaligi sohalari rivojlanishiga turtki bo‘ladi hamda fermer xo‘jaliklari uchun ham qo‘sishimcha foyda olish imkonini tug‘iladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yuqorida sanab o‘tilgan tomchilatish, yomg‘irlatish va shu kabi

innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali hosildorlikda yuqoriroq natijalarga erishilishi mumkin. Bu, eng asosiysi, iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoxo‘jayeva Z. (2023). Qishloq xo‘jaligida suvni tejovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari. SamTSAU Conference, 51-59. <https://cyberleninka.ru/article/n/qishloq-xo-jaligida-suvni-tejovchi-innovatsion-texnologiyalardan-foydalanishning-asosiy-yo-nalishlari/viewer>
2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi (2022). Agro.uz Multi Media Markaz. <https://www.agro.uz/11-04451/>
3. MORCAPUMPS (2024). 10 Agricultural Techniques for Water Conservation. <https://morcapumps.com/blog/agricultural-techniques-for-water-conservation/?srsltid=AfmBOopERVbPuiiNRe4vhGmhWnUK-oqaSq2Te1e19O5P0jiO1DZaiNJR>
4. Valiyev, X., Muradov, Sh., Xolbayev, B. (2010). Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish. Fan va texnologiyalar nashriyoti.
<https://staff.tiame.uz/storage/users/595/books/iTTUhSbqwrkobfdcoP6zK411iUuFNBW7JVrPvZVg.pdf>
5. Gazeta.uz (2019). <https://www.gazeta.uz/oz/2019/02/08/orol-tarix/>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 2-dekabr, PQ-436-son. <https://lex.uz/docs/-6303230?ONDATE=31.10.2023>
7. Jumaniyozov, F. (2025). Mintaqqa barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda suv resurslari samaradorligini baholash va uning yashil iqtisodiyotda tutgan o‘rni. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. 118-122. [file:///C:/Users/Master%20degree/Downloads/Yosh+olimlar+0435%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Master%20degree/Downloads/Yosh+olimlar+0435%20(1).pdf)
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 1-mart, PQ-144-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5884584>
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi (2023). Deputat D. Xolboyeva suv resurslaridan oqilona foydalanish islohotlari haqida. <https://parliament.gov.uz/articles/1786>